



RESURLAR CHEKLANGANLIGI SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY TAHLILI

Djumabayeva Shaira Xalillayevna

Ma'mun universiteti dotsenti, i.f.f.d.

Email: djshoira1987@gmail.com

ORCID: 0009-0008-6383-4543

Annotatsiya: Resurslari cheklangan sharoitda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi mamlakatlarning barqaror iqtisodiy rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy-uslubiy asoslari umumlashtirilib, O'zbekiston tajribasi rasmiy statistik ma'lumotlar asosida iqtisodiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda Global ochlik indeksi dinamikasi, yer va suv resurslaridan foydalanish samaradorligi hamda oziq-ovqat mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilish bilan bog'liq jarayonlar ko'rib chiqilgan. Tahlil natijalari Global ochlik indeksi (GHI) 2000-yildagi 25,7 balldan 2025-yilda 5 balldan past darajaga tushganini va oziq-ovqat xavfsizligi ko'rsatkichlarida ijobiy dinamika shakllanganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, suv resurslarining cheklanganligi, qayta ishlash darajasining pastligi va eksport bozorlarining konsentratsiyasi oziq-ovqat tizimining barqarorligini ta'minlashdagi muhim tarkibiy cheklavlarni namoyon bo'lmoqda. Aniqlangan muammolardan kelib chiqib, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, suv tejovchi texnologiyalarni kengaytirish hamda qayta ishlash quvvatlarini modernizatsiya qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat xavfsizligi, resurslar cheklanganligi, agrosanoat majmuasi, Global ochlik indeksi, suv tejovchi texnologiyalar, agrar iqtisodiyot, davlat qo'llab-quvvatlashi, barqaror rivojlanish.

Abstract: Scientific substantiation of mechanisms for ensuring food security under conditions of resource constraints is of significant scientific and practical importance today. This article summarizes the theoretical and methodological foundations of food security and analyzes Uzbekistan's experience based on official statistical data. The findings show that the Global Hunger Index (GHI) score declined from 25.7 points in 2000 to below 5 points in 2025, indicating a sustained improvement in the country's food security situation. At the same time, limited water resources, a low level of processing, and the concentration of export markets create certain constraints on the sustainable development of the food system. In this context, practical recommendations are developed to improve resource-use efficiency, expand the application of water-saving technologies, and modernize processing capacities.

Keywords: food security, resource scarcity, agro-industrial complex, Global Hunger Index, water-saving technologies, agrarian economics, state support.

Абстрактный: Научное обоснование механизмов обеспечения продовольственной безопасности в условиях ограниченности ресурсов приобретает в настоящее время важное научно-практическое значение. В статье обобщены теоретико-методологические основы обеспечения продовольственной безопасности и проведён анализ опыта Узбекистана на основе официальных статистических данных. Результаты исследования показывают, что значение Глобального индекса голода (GHI) снизилось с 25,7 балла в 2000 году до менее 5 баллов в 2025 году, что свидетельствует об устойчивом улучшении состояния продовольственной безопасности в стране. Вместе с тем ограниченность водных ресурсов, низкий уровень переработки и концентрация экспортных рынков создают определённые ограничения для устойчивого развития продовольственной системы. В этих условиях разработаны практические рекомендации, направленные на повышение эффективности использования ресурсов, расширение применения водосберегающих технологий и модернизацию перерабатывающих мощностей.

Ключевые слова: продовольственная безопасность, ограниченность ресурсов, агропромышленный комплекс, Глобальный индекс голода, водосберегающие технологии, аграрная экономика, государственная поддержка.

Kirish (Введение/Introduction).

So'nggi yillarda kuzatilayotgan iqlimiy zarbalar, energetika inqirozlari va qurolli mojarolar jahon oziq-ovqat tizimining barqarorligiga jiddiy bosim o'tkazmoqda. BMTning oziq-ovqat xavfsizligi bo'yicha qo'shma hisobotiga ko'ra, 2024-yilda dunyo bo'yicha taxminan 673 million kishi, ya'ni jahon aholisining 8,2 foizi, yetarli darajada oziq-ovqat bilan ta'minlanmagan. Bunday holat oziq-ovqat xavfsizligi masalasining nafaqat rivojlanayotgan mamlakatlar, balki resurslari cheklangan barcha mamlakatlar uchun strategik ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, milliy tajribalarni resurs cheklanganligi sharoitida chuqur iqtisodiy tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi tabiiy-resurs cheklavlari va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borishi bilan yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xususan, mamlakatning qattiq kontinental iqlim sharoitida joylashgani, suv resurslarining cheklanganligi hamda qishloq xo'jaligi uchun yaroqli yer va suv resurslaridan foydalanish imkoniyatlarining cheklanganligi oziq-

ovqat ishlab chiqarishining resurs bazasiga muayyan cheklavlarni qo'yadi. Mazkur sharoitda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida Prezidentning 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son Farmoni bilan "Oziq-ovqat xavfsizligi va sog'lom ovqatlanishni ta'minlashning 2030-yilgacha mo'ljallangan strategiyasi" tasdiqlangan [1]. Strategiyada belgilangan maqsad va vazifalarning amaliy natijadorligini baholash esa ularning ijrosi bilan bog'liq statistik ko'rsatkichlar dinamikasini tizimli tahlil qilishni taqozo etadi.

Shundan kelib chiqib, tadqiqotning maqsadi resurslar cheklanganligi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning nazariy asoslarini umumlashtirish, O'zbekistonda mazkur jarayonning amaliy holatini statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilish hamda aniqlangan muammolar asosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Oziq-ovqat muammosining nazariy asoslari klassik iqtisodiy maktab vakillarining qarashlariga borib taqaladi va mazkur yondashuvlar resurslar cheklanganligi sharoitida oziq-ovqat ta'minotini tahlil qilish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ingliz iqtisodchisi T. Maltus aholi sonining geometrik progressiya asosida, oziq-ovqat ishlab chiqarishining esa arifmetik progressiya asosida o'sishi haqidagi qarashlari orqali uzoq muddatli istiqbolda aholi ehtiyojlari bilan mavjud resurslar o'rtasida nomutanosiblik yuzaga kelishi mumkinligini asoslagan [4]. D. Rikardoning yer rentasi nazariyasida esa aholi va oziq-ovqatga bo'lgan talabning ortishi sharoitida unumdorligi nisbatan past bo'lgan yerlarning ham ishlab chiqarish jarayoniga jalb etilishi, buning natijasida ishlab chiqarish xarajatlari va narxlarning oshishi bilan bog'liq jarayonlar izohlanadi [4]. Zamonaviy sharoitda ilmiy-texnik taraqqiyot va intensiv agrotexnologiyalarning rivojlanishi oziq-ovqat ishlab chiqarish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirgan bo'lsa-da, yer va suv resurslarining cheklanganligi muammosi o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Shu sababli oziq-ovqat muammosi bugungi kunda nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki mavjud resurslardan samarali va barqaror foydalanish masalasi sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

Resurslarning cheklanganligi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bozor mexanizmlari bilan bir qatorda davlat tomonidan tegishli iqtisodiy va institutsional mexanizmlarning shakllantirilishini ham taqozo etadi. Xususan, subsidiyalash, iqtisodiy rag'batlantirish va institutsional tartibga solish kabi vositalar orqali oziq-ovqat ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash hamda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari kengayadi [5]. Xalqaro amaliyotda ushbu yondashuv oziq-ovqat xavfsizligi tushunchasining mazmunida ham o'z ifodasini topgan. FAOning zamonaviy talqiniga ko'ra, oziq-ovqat xavfsizligi barcha insonlarning yetarli miqdordagi xavfsiz va to'yimli oziq-ovqat mahsulotlariga doimiy ravishda iqtisodiy va jismoniy jihatdan ega bo'lish imkoniyatini anglatadi [8]. Demak, oziq-ovqat xavfsizligini baholash faqat oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmi bilan cheklanmay, uning mavjudligi, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga kirish imkoniyati, ulardan foydalanish va ta'minotning barqarorligi kabi o'zaro bog'liq jihatlarni ham qamrab oladi.

Mahalliy tadqiqotlarda mazkur umumnazariy yondashuvlar O'zbekiston sharoitining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq holda rivojlantirilmoqda. Xususan, chegaradosh hududlarning iqtisodiy salohiyatidan foydalanish va mintaqaviy ixtisoslashuv mexanizmlari tadqiq etilgan bo'lsa [10], oziq-ovqat mahsulotlarining gigiyenik xavfsizligi laboratoriya tekshiruvlari asosida baholangan va tekshirilgan namunalarning faqat kichik qismida belgilangan talablarga muvofiq kelmaslik holatlari aniqlangan [11]. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarni umumlashtirish oziq-ovqat xavfsizligini resurslar, ishlab chiqarish va tashqi bozorlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik nuqtayi nazaridan kompleks baholashga oid yondashuvlarning yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatadi. Xususan, suv resurslari tanqisligi, qayta ishlash sanoatining rivojlanish darajasi va eksport bozorlarining geografik konsentratsiyasi ko'pincha alohida yo'nalishlar sifatida o'rganilgan. Mazkur omillarni yagona iqtisodiy tahlil doirasida ko'rib chiqish ushbu tadqiqotning ilmiy yangilik jihatlaridan birini tashkil etadi.

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Методы /Methods).

Tadqiqot metodologik asosini resurslar cheklangan sharoitda O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning iqtisodiy samaradorligini baholash tashkil etadi. Tadqiqotda tizimli, statistik, qiyosiy va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi. Oziq-ovqat xavfsizligi aholi jon boshiga oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va iste'moli, narxlar dinamikasi, importga qaramlik, qishloq xo'jaligi resurslaridan foydalanish samaradorligi hamda aholining oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish imkoniyatlari asosida baholandi.

Tahlil jarayonida dinamik qatorlar, nisbiy va o'rtacha ko'rsatkichlar, indeks usuli, taqqoslama tahlil va korrelyatsion tahlil qo'llanildi. Resurslardan foydalanish samaradorligini aniqlashda yer, suv, mehnat va moliyaviy resurslarning oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmiga ta'siri o'rganildi. Shuningdek, oziq-ovqat xavfsizligining asosiy indikatorlari bo'yicha hududlar va yillar kesimidagi tafovutlar aniqlandi.

Tadqiqotning axborot bazasini O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Markaziy bank, xalqaro tashkilotlar va ilmiy tadqiqotlar ma'lumotlari tashkil etdi. Olingan natijalar asosida resurslardan oqilona foydalanish, oziq-ovqat ishlab chiqarish barqarorligini oshirish va importga bog'liqlikni kamaytirishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalarlar (Анализ и результаты/Analysis and results).

Global ochlik indeksi (GHI) — mamlakatlarda ochlik darajasini yetarli ovqatlanmaslik, bolalar orasida vazn yetishmasligi, o'sishning sekinlashuvi va bolalar o'limi kabi ko'rsatkichlar asosida kompleks baholovchi xalqaro indikator hisoblanadi. Mazkur indeksning O'zbekiston bo'yicha dinamikasi mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq ayrim ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlarda ijobiy o'zgarishlar kuzatilganini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval.

O'zbekistonning Global ochlik indeksi (GHI) dinamikasi [6].

Yil	GHI bali	Toifa
2000	25,7	Jiddiy (serious)
2008	12,7	O'rtacha (moderate)
2016	5,7	Past (low)
2025	< 5,0	Past (low)

Jadvalda aks etgan traektoriya - 2000-yildagi "jiddiy" toifadan 2008-yilga kelib "o'rtacha", 2016-yildan boshlab esa "past daraja" toifasiga izchil o'tish - tasodifiy emas, balki agrar sohadagi institutsional islohotlar, ijtimoiy himoya tizimining kengaytirilishi va oziq-ovqat sanoatiga qaratilgan davlat qo'llab-quvvatlash choralarning kumulyativ natijasidir. Shuni ham ta'kidlash lozimki, 2025-yilgi Global Hunger Index hisobotida avvalgi yillarga oid natijalar qayta ko'rib chiqilganligi sababli, turli yillardagi GHI ballari va reytinglarini bevosita hamda mexanik tarzda taqqoslashda ehtiyotkorlik talab etiladi. Shunga qaramay, mazkur to'rt davrga oid ko'rsatkichlar O'zbekistonda ochlik darajasining uzoq muddatli istiqbolda izchil pasayish tendensiyasini aks ettiradi.

Mana shu yutuqning qanday institutsional mexanizm orqali qo'llab-quvvatlanayotganini ko'rsatuvchi asosiy hujjat - Prezidentning PF-36-son Farmoni bilan tasdiqlangan strategiya bo'lib, u 2023–2030-yillar uchun aniq maqsadli indikatorlarni belgilaydi (2-jadval).

2-jadval.

O'zbekistonning oziq-ovqat xavfsizligi strategiyasining tanlangan maqsadli indikatorlari (2023–2030 yy.) [1].

Indikator	2023 (joriy)	2030 (maqsad)	O'sish (band)
Bug'doy hosildorligi, s/ga	67,0	100,0	+33,0
Sabzavotlar hosildorligi, s/ga	212,1	295,0	+82,9
Meva va rezavorlar hosildorligi, s/ga	94,2	150,0	+55,8
O'simlik yog'i bilan ta'minlash darajasi, %	50,0	75,0	+25,0
Go'sht bilan ta'minlash darajasi, %	93,0	95,5	+2,5
To'yib ovqatlanmaydiganlarning umumiy aholiga nisbatan ulushi, %	2,5	1,5	–1,0
Suv tejovchi texnologiyalar ulushi, %	27,0	60,0	+33,0

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, keltirilgan indikatorlar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning muhim yo'nalishlarini, xususan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari hosildorligini oshirish, suv resurslaridan samarali

foydalanish va sog'lom ovqatlanishni ta'minlashga qaratilgan. 2023-yilgi qiymatlar mavjud holatni, 2030-yilgi qiymatlar esa Strategiyada belgilangan maqsadli darajalarni ifodalaydi.

Ushbu strategik maqsadlarning orqasida qanday resurs bazasi turganini tushunish uchun yer va suv resurslari holatiga murojaat qilish lozim. O'zbekiston Respublikasining umumiy maydoni 44,9 million gektarni tashkil etsa, shundan atigi 9,7 foizi, ya'ni 4,3 million gektari, sug'oriladigan yerlar hissasiga to'g'ri keladi - bu nisbat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini kengaytirishning ekstensiv emas, balki asosan intensiv omillar hisobiga amalga oshirilishini taqozo etadi. 2021–2024-yillar mobaynida sug'oriladigan yerlar 4220,5 ming gektardan 4268,7 ming gektarga oshgan bo'lsa-da, ekin maydoni jami 3017,5 ming gektardan 3008,8 ming gektarga qisqargan. Bu ko'rinishda qarama-qarshi tuyuladigan tendensiya aslida bitta mantiqqa bo'ysunadi: sug'oriladigan yerlar maydoni oshmoqda, ammo ekin maydonlari tarkibi yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar foydasiga optimallashtirilmogda.

Yer resurslaridagi bu nisbatan barqaror manzaraga qaraganda, suv resurslari borasidagi vaziyat ancha keskinroq: qishloq xo'jaligi mamlakat umumiy suv iste'molining qariyb 90 foizini tashkil etadi, Jahon banki bashoratlariga ko'ra esa muzliklar oqimining kamayishi natijasida suv ta'minoti 30–40 foizga qisqarishi kutilmogda [7]. 2025-yilda suv zaxiralari o'tgan yilga nisbatan 6,5 milliard kub metrqa kamaygan - bu raqam suv resursi cheklonining nazariy mulohaza emas, balki bugungi kunning amaliy real xavfi ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, xuddi shu davrda 817,2 ming gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalar joriy etilib, 2,3 milliard kub metr suv tejalgani - muammoning javobsiz qolmayotganini va 2-jadvaldagi 60 foizga yetkazish rejasi yo'nalishida ish borayotganini tasdiqlaydi.

Resurslardan tejamkor foydalanish oziq-ovqat xavfsizligining muhim sharti bo'lsa-da, uning iqtisodiy samaradorligi yetishtirilgan mahsulotning qay darajada qo'shilgan qiymatga aylantirilishi va barqaror bozorlarga chiqarilishi bilan ham belgilanadi. 2024-yilda meva-sabzavot mahsulotlari eksporti 2036,1 ming tonnani, qiymat jihatidan esa 1549,4 mln AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 31,2 foizga oshgan. Biroq eksport hajmining o'sishini uning geografik tarkibi bilan birgalikda baholash eksport barqarorligini yanada aniqroq tavsiflash imkonini beradi. Xususan, eksport geografiyasida ayrim mamlakatlarning ulushi yuqori bo'lib, Rossiya 40,8 foiz, Pokiston 12,4 foiz, Qozog'iston 12,2 foiz, Xitoy 8,3 foiz va Afg'oniston 8,0 foiz ulushga ega, qolgan mamlakatlar hissasiga esa 18,3 foiz to'g'ri keladi. Eksport bozorlarining konsentratsiya darajasini miqdoriy baholash maqsadida xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan Herfindahl–Hirschman indeksi ($HHI = \sum s_i^2$) hisoblandi. Mazkur indeks 0 dan 10 000 gacha bo'lgan qiymatlarni qabul qiladi: 1500 ball dan past qiymat bozor konsentratsiyasining nisbatan pastligini, 1500–2500 oralig'idagi qiymatlar o'rta konsentratsiyani, 2500 ball dan yuqori qiymatlar esa yuqori konsentratsiyani ifodalaydi. O'zbekiston meva-sabzavot eksporti bo'yicha hisoblangan $HHI \approx 2435$ ballni tashkil etib, bozor konsentratsiyasining yuqori chegarasiga yaqin ekanini ko'rsatadi. Bu holat eksport hajmining o'sishiga qaramay, uning geografik diversifikatsiyasi yetarli darajada yuqori emasligini va ayrim asosiy savdo hamkorlaridagi talab yoki savdo siyosatining o'zgarishi eksport barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkinligini anglatadi. Shu bilan birga, qo'shilgan qiymat zanjirining keyingi bosqichlarida ham muayyan cheklovlar mavjud. Prezident Sh. Mirziyoyevning rasmiy bayonotiga ko'ra, yetishtirilayotgan meva-sabzavot mahsulotlarining atigi 15 foizi sanoat usulida qayta ishlanib, 8 foizi eksport qilinmogda [12]. Bundan tashqari, FAOning rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha umumlashtirilgan baholariga ko'ra, meva-sabzavot mahsulotlarining yig'ishtirilgandan keyingi saralash, ortish, tashish va saqlash bosqichlaridagi yo'qotishlari 22–45 foizgacha yetishi mumkin. Mazkur ko'rsatkich O'zbekiston bo'yicha alohida milliy statistika sifatida emas, balki rivojlanayotgan mamlakatlar uchun umumlashtirilgan xalqaro ko'rsatkich sifatida talqin qilinishi lozim. Shunday qilib, meva-sabzavot eksportining 31,2 foizga o'sishi ijobiy dinamikani ifodalasa-da, uning

barqarorligi nuqtayi nazaridan ikkita muhim masala — eksport bozorlarining nisbatan yuqori konsentratsiyasi va mahsulotlarni qayta ishlash darajasining pastligi — saqlanib qolmogda.

2021–2024-yillarda qishloq xo'jaligining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 23,6 foizdan 19,2 foizgacha, band aholi tarkibidagi ulushi esa 25,2 foizdan 22,7 foizgacha kamaygan. Mazkur ko'rsatkichlarning pasayishi qishloq xo'jaligi sektorining mutlaq qisqarishini bevosita anglatmaydi, balki iqtisodiyot tarkibidagi nisbiy o'zgarishlarni ham aks ettirishi mumkin. Xususan, sanoat va xizmatlar sohalarining nisbatan yuqori sur'atlarda rivojlanishi natijasida qishloq xo'jaligining yalpi ichki mahsulot va bandlikdagi ulushi qisqarishi ehtimoli mavjud. Shu sababli qishloq xo'jaligining iqtisodiyotdagi ahamiyatini faqat uning nisbiy ulushi orqali emas, balki ishlab chiqarishning mutlaq hajmi, mehnat unumdorligi va mahsulot yetishtirish dinamikasi bilan birgalikda baholash maqsadga muvofiq.

Xulosa va takliflar (Выводы и предложения/Conclusion)

Xulosa qilib aytganda, resurslar cheklanganligi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasi nazariy, amaliy va strukturaviy jihatlarni qamrab oladi. Nazariy jihatdan mazkur muammo Maltus va Rikardo qarashlarida asoslangan resurslar hamda oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoj o'rtasidagi nomutanosiblik bilan izohlanadi. Amaliy jihatdan O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi holatining 2000–2025-yillardagi GHI dinamikasi va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan strategik chora-tadbirlar bilan tavsiflanishi kuzatiladi. Shu bilan birga, suv resurslarining cheklanganligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash darajasining pastligi hamda eksport bozorlarining konsentratsiyasi oziq-ovqat tizimining barqarorligini ta'minlashda muhim strukturaviy cheklovlar sifatida namoyon bo'lmogda. O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi darajasi 2000–2025-yillar mobaynida izchil yaxshilangan bo'lsa-da, tavsiflovchi statistik ma'lumotlar resurslardan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari bilan GHI dinamikasida vaqt bo'yicha bir yo'nalishdagi o'zgarishlar mavjudligini ko'rsatadi. Biroq mazkur holat sabab-oqibat bog'liqligini anglatmaydi va bunday bog'liqlikni aniqlash uchun alohida ekonometrik tadqiqotlar talab etiladi. Resurslardan samarali foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni kengaytirish, mahsulotlarni chuqur qayta ishlash va eksport bozorlarini diversifikatsiya qilishga qaratilgan chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi O'zbekistonda barqaror va raqobatbardosh oziq-ovqat tizimini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash bo'yicha amaliy tavsiyalar:

- 1. Resurs samaradorligini oshirish** – hududlarning tabiiy-iqlimiy xususiyatlariga mos ixtisoslashuvni rivojlantirish va klaster tizimini takomillashtirish orqali yer hamda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish.
- 2. Suv xavfsizligini ta'minlash** – tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish kabi suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish sur'atlarini oshirish hamda 2028-yilgacha ularning sug'oriladigan yerlar qamrovini kamida 80 foizga yetkazish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlarning ijrosini jadallashtirish.
- 3. Qo'shilgan qiymatni oshirish** – meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash va chuqur qayta ishlash quvvatlariga investitsiyalarni kengaytirish hamda muallif taklifiga ko'ra, ularning qayta ishlash darajasini 40–50 foizga yetkazish imkoniyatlarini ko'rib chiqish.
- 4. Bozor barqarorligini mustahkamlash** – eksport geografiyasini kengaytirish, asosiy tashqi bozorlarga haddan tashqari bog'liqlikni kamaytirish hamda GlobalGAP va HACCP kabi xalqaro sifat va xavfsizlik standartlariga muvofiqlikni kengaytirish.
- 5. Boshqaruv samaradorligini oshirish** – raqamli monitoring tizimlari va sun'iy intellekt asosidagi agro-platformalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish, resurslardan foydalanish va mahsulot harakatini real vaqt rejimida monitoring qilish hamda boshqaruv qarorlarining tezkorligini oshirish.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литературы/ References):

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-son Farmoni. lex.uz/docs/-6802687

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son Farmoni. lex.uz/docs/-4567334
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-fevraldagi PQ-5009-son qarori. lex.uz/docs/-5309655
4. Mamedov, H., Muminov, N., Umarov, A., Ismailov, A. (2022). Iqtisodiyot nazariyasi. I tom: darslik. — Toshkent: Bookmany print. — 440 b.
5. Shadmanov, E.Sh., Abulqosimov, H.P., Anarqulov, A.D., Abulqosimov, M.X. (2025). Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish: darslik. — Toshkent. — 479 b.
6. Global Hunger Index. (2025). 2025 Global Hunger Index: Uzbekistan. Welthungerhilfe & Concern Worldwide. globalhungerindex.org/uzbekistan.html
7. World Bank. (2022). Towards a Greener Economy in Uzbekistan. World Bank Group.
8. FAO, IFAD, UNICEF, WFP & WHO. (2025). The State of Food Security and Nutrition in the World 2023. Rome: FAO.
9. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. (2025). Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi statistik to'plami. stat.uz
10. Djumabayeva, Sh.X. (2026). Quyi Amudaryo iqtisodiy mintaqasi chegarabo'yi hududlarining turistik imkoniyatlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 4(2).
11. Ikramova, N., Sherkuziyeva, Sh., Salomova, Sh. (2025). Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi muammolari va uni hal etish yo'llari.
12. Review.uz. (2024). O'zbekistonda meva-sabzavotlikni rivojlantirish tendensiyalari va istiqbollari (Prezident Sh.Mirziyoyev bayonoti asosida). review.uz/uz/post/ozbekistonda-meva-sabzavotlikni-rivojlantirish-tendensiyalari-va-istiqbollari